

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

YOVQACHEVA ZEBO MELIQULOVNA

**POETIK MATNDA MUROJAATLARNING SEMANTIK-FUNKSIONAL
MAQOMI (A. Axmatova va M. Svetayeva poetik tili materialida)**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Yovqacheva Zebo Meliqulovna

Poetik matnda murojaatlarning semantik-funksional maqomi

(A. Axmatova va M. Svetayeva poetik tili materialida)..... 3

Ёвкачева Зебо Меликуловна

Семантико-функциональный статус обращения в поэтическом тексте

(на материале поэтического языка А. Ахматовой и М. Цветаевой)..... 27

Zebo Melikulovna Yovkacheva

Semantic and Functional Status of the Address in the Poetic Text (based on the material of the poetic language of A. Akhmatova and M. Tsvetaeva).....

55

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 59

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

YOVQACHEVA ZEBO MELIQULOVNA

**POETIK MATNDA MUROJAATLARNING SEMANTIK-FUNKSIONAL
MAQOMI (A. Axmatova va M. Svetayeva poetik tili materialida)**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2017.3.PhD/Fil333 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Boqiyeva Gulandom Hisamovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xoshimova Dildora O‘rinbayevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Bakirov Poyon Uralovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat chet tillari instituti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «____» _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100138, Toshkent sh., Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, G-9A mavzesi, 21-uy. Tel.: (71) 230-12-91; faks: (99871) 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru)

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent sh., Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, G-9A mavzesi, 21-uy. Tel.: (71) 230-12-91; faks: (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «____» _____ kuni tarqatildi.

(2023 yil «____» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi.)

L.T. Axmedova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi v.b., ped.f.d., professor

X.B. Samigova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., dotsent

J.A. Yakubov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi zamonda olimlar e'tibori XX-XXI asr kesimidagi jahon tilshunosligida til bo'yicha tadqiqotlar struktur-semantik aspektidan funksional-kommunikativ jihatiga qaratilmoqda. Shunga ko'ra, lingvistik, psixolingvistik, lingvokulturologik, pragmatik yondashuvlar asosida o'rganilayotgan lisoniy shaxs fenomeni tadqiqotlar markaziga aylanmoqda. Poetik matnda lirik personajlarning murojaatlari, shuningdek, murojaatlar bilan birga qo'llaniluvchi lirik qahramonlar nutq faoliyati verbal vositalari va noverbal harakatlarining amaliy pragmatik xususiyatlarini ochib berish muhim ahamiyatga ega.

Dunyo tilshunosligida poetik matnning janriy-lisoniy xususiyatlari bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. A. Axmatova va M. Svetayevalar ijodini olimlar jahon madaniyati kontekstida tahlil qilmoqdalar. A. Axmatova va M. Svetayeva lirik asarlari personajlarining lisoniy shaxs sifatidagi xususiyatlarini tadqiq etish orqali murojaatning sintaktik maqomini, uning turlari, shakllari va ifoda usullarini aniqlash hamda kommunikativ-pragmatik yondashuv asosida lirik qahramonlar nutqiy harakatlarining umumiy jihatlarini aniqlash dolzarblik kasb etmoqda.

Mamlakatimizda poetik matnda murojaatlarning semantik-funksional maqomi masalasini jahon badiiy an'analari kontekstida tadqiq etishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "ijtimoiy soha, jumladan, ilm-fan, adabiyot, san'atni rivojlantirish"¹ zaruriyati ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Shu munosabat bilan A. Axmatova va M. Svetayevaning poetik matnlarida sintaktik tuzilma unsuri bo'lgan murojaatning turli nutqiy vaziyatlarda semantik-funksional maqomini o'rganish, ularning substansial mohiyatini aniqlash masalasi zamonaviy rus va o'zbek tilshunosligi fanida dolzarblik kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 11-iyuldagi PF-5763-son "Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-maydagi № 174-son "Oliy ta'lim tizimi uchun xorijiy o'quv va ilmiy adabiyotlar xarid qilish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 10-oktyabrdagi № 816-son "Oliy ta'lim muassasalarini o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash to'g'risida"gi qarorlari, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni // Xalq so'zi. 2017 yil 8 fevral.

boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertasiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertasiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Olimlar tilshunoslik obyektlarining tizimligini inobatga olgan holda, tilni tadqiq qilishning quyidagi bosqichlarini ko'rsatadilar:

Lingvistik voqelikni pragmatik jihatdan o'rganish muammosini tadqiq qilish barobarida, biz olimlarning A. Axmatova va M. Svetayevalarning poetik tili bo'yicha olib borgan tadqiqotlarning ba'zi yo'nalishlarini taqdim etamiz. O.G. Sherbinina² ishlarida A. Axmatova asarlarining tovushlar tizimi, V.S. Bayevskiy, M.B. Meylax, A. Xan, L.A. Kuznetsova, S.A. Nogachevskaya, A.V. Yakovleva³ ishlarida A. Axmatova hamda M. Svetayeva poetik tilining semantik jihatini yoritilgan, N.S. Valgina⁴ ishlarida A. Axmatova she'rlari sintaksisining o'ziga xos tuzilishi tadqiq etilgan.

M. Belkina, I. Kudrovalar⁵ M. Svetayeva ijodining biografik manbalarini o'rganishgan. M. Svetayeva shaxsiyatining psixologik manbalari L.N. Kozlova, D. Taubman⁶ ishlarida, falsafiy jihatlarini M. Losskaya, Ye.L. Lavrova, L.A. Kuznetsovalarning⁷ ishlarida o'rganilgan.

M. Svetayeva ijodi qiyosiy aspektida L.L. Belskaya, O. Kling, J. Kiperman ishlarida tadqiq etilgan⁸; evolyutsiyaviy jihatini A.A. Saakyans M.L. Gasparov, L. A. Mnuxinning ishlarida ko'rib chiqilgan⁹. M. Svetayeva ijodi mazmuni:

² Щербинина О.Г. «Не звукоподражание, а душепреображение...» (К 100-летию со дня рождения А. Ахматовой) // Русская реч. 1989. № 3.

³ Баевский В.С. О семантике заглавий ахматовских книг // Литература и фольклорная традиция. – Волгоград, 1997; Мейлах М.Б. Об именах Ахматовой. 1. Анна // Russian Literature. 1975. № 10/11; Хан А. К проблеме жанрового своеобразия ранней лирики А. Ахматовой: Опыт параллельного анализа семантической структуры текста и психологической структуры жанровых моделей // Acta Univ. Szegediensis: Diss. slavica, 1976. № 11; Кузнецова Л.А. Эстетическая функция слова в ранней поэзии Анны Ахматовой: лексико-семантический аспект: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1995; Ногачевская С.А. Ономастика А. А. Ахматовой: генезис, функции, текстообразование: Дисс. ... канд. филол. наук. – Одесса, 1994; Яковлева Е.А. Особенности речевого поведения горожанина в полиэтническом городе // Проблемы коммуникации и номинации в концепции общегуманитарного знания // Сборник научных трудов в честь проф. Л.А. Шкатовой. – Челябинск, 1999.

⁴ Валгина Н. С. Современный русский язык: Синтаксис. Изд. 4-е., испр. – М.: Высшая школа, 2003. – 416 с.

⁵ Белкина М. Скрещение судеб. – М., 1988; Кудрова И.В. «Дом на горе» М. Цветаевой. 1923 г. // Звезда. – 1987. – № 8.

⁶ Козлова Л.Н. По волному следу воды родниковой. К истокам личности Марины Цветаевой // Звезда. – 1987. – № 8; Таубман Д. «Живя стихами...» Лирический дневник М. Цветаевой. – М., 2000.

⁷ Лосская В.М. Цветаева в жизни. – М., 1992.; Лаврова Е.Л. Поэтическое мирозерцание М.И. Цветаевой. – Горловка, 1994; Кузнецова Л.А. Эстетическая функция слова в ранней поэзии Анны Ахматовой: лексико-семантический аспект: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1995.

⁸ Белская Л.Л. «Бессонница» в русской поэзии // Русская реч. – 1995. – № 4; Клинг О. Поэтический стиль М. Цветаевой и приемы символизма: притяжение и отталкивание // Вопросы литературы. Вып. III. – М., 1992; Киперман Ж. «Пророк» Пушкина и «Сивилла» Цветаевой // Вопросы литературы. – 1992. – № 3.

⁹ Саакянц А.А. Марина Цветаева. Жизнь и творчество. – М., 1997; Гаспаров М.Л. «Поэма воздуха» Марины Цветаевой: Опыт интерпретации // Труды по знаковым системам. Вып. 15 / Отв. ред. Лотман Ю.М. – Тарту,

N.V. Orlova, O.G. Revzina, S. Yelniskaya, I.A. Gulova¹⁰ ishlarida tahlil etilgan. M. Svetayeva asarlarining fonetik jihati esa L.V. Zubova, N.N. Volskaya¹¹ ishlarida o'rganilgan. Sintaktik jihat, xususan, tinish belgilarining nostandart qo'llanishi I.O. Brodskiy, N.G. Golsova¹² kabi olimlar tadqiqotlarining o'rganish obyekti bo'lgan. Ammo poetik matnda murojaatlarning semantik-funksional maqomi masalasi hozirga qadar kam o'rganilgan bo'lib, jiddiy tadqiqotlarni talab etadi.

Tadqiqotning dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertasiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining OT-F8-002 raqamli «Doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va talabalar o'rtasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot, ilmiy-ijodiy ishlar» mavzuidagi istiqbolli ilmiy reja doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi poetik matnda, xususan, A. Axmatova va M. Svetayeva lirikasida murojaatlarning semantik-funksional maqomini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

A. Axmatova va M. Svetayevaning lirik asarlarida murojaatning sintaktik maqomi, uning turlari, shakllari va ifoda usullarini aniqlash;

murojaatlarning gap va nutqdagi vazifalarini tavsiflash;

A. Axmatova va M. Svetayevalar she'riy matnlari tahliliga bo'lgan kommunikativ-pragmatik yondashuv asosida lirik qahramonlar nutqiy harakatlarining umumiy jihatlarini aniqlash;

murojaatlar verbal va noverbal ifoda vositalarining individual va differensial xususiyatlarini, A. Axmatova va M. Svetayeva lirik qahramonlari nutqiy harakatlari hamda mualliflarning ular atrofidagi dunyo va unda sodir bo'layotgan voqealarga nisbatan individual qarashlarining o'zaro bog'liqligini aniqlash.

Tadqiqotning obyektini A. Axmatova va M. Svetayeva poetik ijodida foydalanilgan murojaatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini A. Axmatova va M. Svetayeva lirik qahramonlari poetik murojaatining turli vaziyatlarida ifodalangan nutqiy xulqining semantik va funksional xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertasiya mavzusini yoritishda tavsiflash, qiyoslash, statistik, yalpi tanlash va lingvostilistik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

1982; Мнухин Л.А. Первая книга М. Цветаевой // Индивидуальность писателя и литературно-общественный прогресс. – Воронеж, 1979.

¹⁰ Орлова Н.В. Жанры разговорной речи и их «стилистическая обработка». К вопросу о соотношении стиля и жанра // Жанры речи. – Саратов, 1997; Ревзина О.Г. Выразительные средства поэтического языка М. Цветаевой и их представление в индивидуально-авторском словаре // Язык русской поэзии XX в. Сб. науч. тр. – М., 1989; Елницкая С. «Возвышающий обман» (Миротворчество и мифотворчество М. Цветаевой) // Марина Цветаева. Симпозиум, посвященный 100-летию со дня рождения. 1892-1992 / Русская школа Норвичевского ун-та. – Нортфилд; Вермонт, 1992. Т. 2; Гулова А.И. «Оболщус сутю...» (Тема родины в лирике М. Цветаевой) // Русский язык в школе. 1992. № 3.

¹¹ Зубова Л.В. Поэзия Марины Цветаевой. Лингвистический аспект. – Л., 1989; Волская Н.Н. Стилистические функции звукового и морфологического повтора в автобиографической прозе М. Цветаевой // Филологические науки. – М., 1996.

¹² Бродский И. О Цветаевой: интервью, эссе. – М., 1997; Голцова Н.Г. Индивидуально-авторская пунктуация в произведениях М. Цветаевой // Семантика прагматических форм и речевых конструкций. – М., 1991.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

murojaatlarning sintaktik va semantik-funksional maqomi hamda A.Axmatova va M.Svetaeva lirik asarlarida ularning verbalizatsiyasi, she'riy asarlardagi lirik qahramonlarning nutqida savol, tanbeh, buyruq, iltimos, iltijo, topshiriq, qasam kabi nutqiy aktlarni o'z ichiga olgan murojaatlar mavzuiy maydonlari ochib berilgan;

A. Axmatova va M. Svetayeva asarlari tahliliga kommunikativ-pragmatik yondashuv asosida shoiralarning lirik qahramonlari nutqiy harakatlarining o'ziga xos jihatlari hamda lirikada kommunikativ va pragmatik aspektda muallifning o'ziga, sevgilisiga, real suhbatdoshlarga yo'naltirilgan savollar tipologiyasi aniqlangan;

A. Axmatova va M. Svetayeva lirik qahramonlari nutqiy harakatlari va dunyoqarashi ifodasining lisoniy va nolisoniy usullari ularning verbal (qasam, uchrashuv, qadahso'z, minnatdorlik) va noverbal (o'ziga yoki o'zidan yo'nalgan qo'l harakatlari, yopiqlik, begonasirash) harakatlarini tasniflash orqali aniqlangan;

A. Axmatova va M. Svetayeva lirik qahramonlari nutqiy harakatlarining o'zaro bog'liqligi va dunyoni nostandart tarzda idrok etishining statistik natijalari asosida A. Axmatova va M. Svetayeva lirik qahramonlari nutq harakatlarining o'zaro bog'liqligi shoiralari asarlarida murojaatlardan foydalanishning universal xususiyatlarini aniqlash orqali isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

A. Axmatova va M. Svetayeva asarlaridagi lirik qahramonlar nutqiy harakatlari orqali dialogik vaziyatning shakllantirilishi asoslangan;

lirik she'rda badiiy muloqot tabiiy nutqiy kommunikatsiyaning murakkablashgan modelini namoyon etishi, dialogning o'zi lirik qahramonning birgina iborasigacha qisqarib, unda ikkita: ham muallif, ham personaj nuqtai nazari mujassam ekanligi ko'rsatilgan;

transformatsiyaning barcha ko'rinishlarida she'rdagi dialogik vaziyat o'zining ontologik mohiyati – kitobxonga mo'ljallanganlik va uni matndan tashqari muloqot qilishga undash xususiyatini saqlab qolishi aniqlangan;

A. Axmatova va M. Svetayeva lirik qahramonlari nutqiy harakatlarini tahlil qilish lirik she'r doirasida nutqiy harakatning o'ziga xosligi, nutqiy va nutqiy bo'lmagan unsurlar, lirik qahramonlar kommunikativ rollari repertuari haqidagi ilmiy tasavvurlarni kengaytirishga ko'maklashadi, shuningdek, matnning subyektiv jihati va muallif lisoniy shaxsi tavsifini o'rganishga yo'l ochib beradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertasiyada ishonchli manbalardan olingan yondashuvlar, usullar va nazariy ma'lumotlardan foydalanilganligi; keltirilgan tahlil va mulohazalarning asoslanganligi, xulosalar, taklif va tavsiyalarning joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olingan natijalar murojaatlarning poetik asarda voqelanishi, nutqiy va nutqiy bo'lmagan unsurlar, lirik qahramonlar kommunikativ rollari repertuari haqidagi ilmiy tasavvurlarning nazariy asoslarini kengaytirish va boyitishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalarning hozirgi rus tili fanini o'qitishda, sintaksis, stilistika va badiiy matnning lingvistik tahlili bo'yicha maxsus seminarlarda, shuningdek, A. Axmatova va M. Svetayevalar ijodiga bag'ishlangan maxsus kurslar va seminarlarda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. A. Axmatova va M. Svetayeva poetik matnlaridagi murojaatlarning semantik-funksional maqomini o'rganish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

murojaatlarning sintaktik va semantik-funksional maqomi hamda A. Axmatova va M. Svetayeva lirik asarlarida ularning verbalizatsiyasi, she'riy asarlardagi lirik qahramonlarning nutqida savol, tanbeh, buyruq, iltimos, iltijo, topshiriq, qasam kabi nutqiy aktlarni o'z ichiga olgan murojaatlar mavzuiy maydonlari bo'yicha olingan ilmiy natijalardan 561624-raqamli EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CHBE-SP-ERASMUS-CHBE IMEP "O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiya va demokratlashtirish" innovatsion loyiha doirasida foydalanilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 15-iyuldagi 1763/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada o'qituvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, leksikologiya va grammatika sohasidagi bilimlarini oshirish, ularning lingvistik va madaniy bilimlarini rivojlantirish, shuningdek, ta'lim tizimini yanada modernizatsiya qilish va demokratlashtirish maqsadida innovatsion tadqiqot loyihasi asosida uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

A. Axmatova va M. Svetayeva asarlari tahliliga kommunikativ-pragmatik yondashuv asosida shoiralarning lirik qahramonlari nutqiy harakatlarining o'ziga xos jihatlari hamda kommunikativ va pragmatik aspektida lirikada o'ziga, sevgilisiga, real suhbatdoshlarga yo'naltirilgan savollar tipologiyasi bo'yicha ilmiy natijalardan O'zbekiston jahon tillari universitetida "Zamonaviy rus tili. Sintaksis" fani (5111300 – Ona tili va adabiyoti (Rus tili va adabiyoti o'zga tilli guruhlarda) hamda Jizzax davlat pedagogika universitetida "Zamonaviy rus tilini o'qitish, sintaksis" fani (5111300 – Ona tili va adabiyoti (Rus tili va adabiyoti o'zga tilli guruhlarda) yo'nalishi o'quv jarayoniga tatbiq etilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 6-sentyabrdagi 89-04-1627-son ma'lumotnomasi). Natijada, murojaatlarning sintaktik maqomi, ularning turlari, shakllari va ifoda yo'sinlarini, gap va nutqda murojaatlarning voqelanishini o'rganishga qaratilgan o'quv jarayonining takomillashuviga erishilgan;

A. Axmatova va M. Svetayeva lirik qahramonlari nutqiy harakatlari va dunyoqarashi ifodasining lisoniy va nolisoniy usullari ularning verbal (qasam, uchrashuv, qadahso'z, minnatdorlik) va noverbal (o'ziga yoki o'zidan yo'nalgan qo'l harakatlari, yopiqlik, begonasirash) harakatlarini tasniflashga oid materiallardan, shuningdek, A. Axmatova va M. Svetayeva lirik qahramonlari nutqiy harakatlarining o'zaro bog'liqligi va dunyoni nostandart tarzda idrok etishining statistik natijalari asosida A. Axmatova va M. Svetayeva lirik qahramonlari nutq harakatlarining o'zaro bog'liqligiga oid natijalaridan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Baynalmilal adabiyot kengashi yig'ilishlarida foydalanilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2021-yil 4-avgustdagi 01-03/971-son ma'lumotnomasi). Natijada, A. Axmatova va M. Svetayeva lirik

personajlari xarakterini yanada keng ochib berishga, tinglovchilarning harakatlarni lisoniy va nolisoniy ifodalash vositalari, shoirlar lirik qahramonlarining dunyoqarashini anglash, lirik qahramonlar nutqiy aktlari bog‘liqligi va mualliflarning nostandart dunyoqarashi borasidagi bilimlarini kengaytirishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, shundan 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, asosiy matn 137 sahifani tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob‘yekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertasiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning **“Murojaatlar lingvistik tadqiqotlar obyekti sifatida”** deb nomlangan birinchi bobida murojaatlarning lingvistik maqomi belgilab berilgan, ular sintaktik birlik sifatida tahlil qilinib, poetik nutq birligi sifatida talqin etilgan, shuningdek, poetik nutqning o‘ziga xosligi va uning prozaik nutqdan farqi ko‘rib chiqilgan.

Murojaat sintaktik kategoriyasi qadim zamonlardan rus tilshunoslari e‘tiborini o‘ziga jalb etib kelgan. Dialogik nutqning turli og‘zaki va yozma shakllari orqali ifodalanadigan murojaatlar ularning tadqiqot obyekti bo‘lgan. Murojaatlarning gapdagi boshqa so‘zlar bilan grammatik aloqaga kirishmasligi, so‘z, so‘zlar guruhi sifatida talqin etilsa-da, alohida ohang bilan farqlanishi kabi xususiyatlari doim tadqiqotchilar diqqatini o‘ziga tortgan. Murojaat deganda, shaxsga tegishli (ba‘zan predmet bo‘lishi mumkin) so‘z yoki bir necha so‘zlar birikmasi tushuniladi. Bevosita muloqot chog‘ida nutq ana shunday shaxsga qaratiladi. 4 jildli Rus tilining izohli lug‘atida murojaat so‘zi “nutq qaratilgan shaxsni ifodalaydigan so‘z yoxud so‘zlar qatori” deb izohlangan¹³.

Murojaatlar yetarli darajada o‘rganilganiga qaramay, u tabiatining murakkabligi va ziddiyatli ekanligi sababli ko‘pgina masalalar, masalan, murojaatlarning substansial mohiyatini aniqlash masalasi hal etilmagan bo‘lib,

¹³ Ушаков Д.Н. Толковый словарь в четырёх томах, Т. 2., ин-т «Сов. энцикл.» ОГИЗ; Гос. изд-во иностр. и нац.слов., – С. 1935-1940.

ba'zan esa, muammoga bo'lgan yondashuv turfaxilligi, hattoki qarama-qarshiligi bilan xarakterlanadi.

Ta'kidlash joizki, murojaatning nomlash, ya'ni apellyativ vazifasi asosiy deb belgilangan. Ushbu vazifa o'laroq tashkil etuvchilarining ma'nosi hamda vazifasi sifatli o'zgarganida semantik jihatdan murakkab tuzilmaga aylantirilgan murojaatning yaxlitligini ta'minlaydi. "Aziz do'stim" kabi murojaatlarda sifatlar adresantning adresatga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Ma'lumki, ko'pincha, apellyativ funksiya, N.Y. Shvedova to'g'ri ta'kidlaganidek, "ekspressiv bo'yoqdorlik, so'zlovchi (yozuvchi)ning subyektiv munosabati ifodasi bilan uyg'unlashadi"¹⁴.

Murojaatlarning ikkita emas, bir nechta vazifa bajarishiga e'tibor qaratish lozim. So'z o'rnida qo'llanilib, undan farqli o'laroq, faqat ungagina xos belgilar, masalan, ohang, predikatlilik kabilar bilan to'yingan. Leksik planda u uzual yoki okkazional birlik bilan ifodalanishi mumkin, masalan, uzual bo'lsa, u til birligi vazifasini bajaradi, okkazional bo'lsa – nutq birligi bo'ladi. Mazmun bilan invariant ma'no uyg'unlashgan uzual murojaatlar bir vaqtning o'zida ham til birligi, ham nutq birligi sifatida qabul qilinadi.

Sintaktik tuzilma unsuri bo'lgan murojaat turli nutqiy vaziyatlarda keng qo'llanadi. Sistem-struktur yondashuv adresat kabi ijtimoiy omilni to'la hisobga olmaydi, bu semantika, uslubiyat va kommunikativ pragmatika doirasida insonga bo'lgan murojaatlarning keng va rang-barang guruhining o'ziga xosligini aniqlash imkonini beradi. Ammo insonga bo'lgan murojaat adresat nomini ifodalash va uning diqqatini tortish bilan cheklanmaydi. Bu murojaatni kommunikativ-pragmatik jihatdan o'rganish imkoniyatini beradi.

T.G. Lupashku¹⁵ masalaga yanada chuqur yondashib, murojaat lisoniy birligini o'rganishga bo'lgan yondashuvdan kelib chiqib, sintaktik kategoriya sifatida talqin etilgan ishlarni uchta guruhga ajratadi:

sistem-struktur yondashuvda (F.I. Buslayev, D.N. Ovsyaniko-Kulikovskiy, A.A. Potebnya, A.A. Shaxmatov, A.M. Peshkovskiy, A.G. Rudnev, G.P. Torsuyev, A.F. Priyatkina, Y.V. Krotevich, V.P. Pronichev, Z.M. Dvornaya, A.P. Leontyev, I.P. Malsev, I.D. Chapligina va b.) murojaat ham alohida ajratilgan bo'lak sifatida, ham mustaqil bir tarkibli gap sifatida talqin etiladi;

funksional, funksional-stilistik yondashuv (M.M. Kopilenko, N.I. Formanovskaya, L.Y. Maksimov, I.I. Kovtunova, V.Y. Goldin, N.I. Belunova va b.);

kommunikativ-pragmatik yondashuvda adresat omili (N.D. Arutyunova, T.G. Vinokur, G.A. Zolotova, G.I. Bogin, T.V. Shmelyova, T.Y. Gubareva, O.I. Vorobyova, N.P. Volvak va b.) va matnning kommunikativ strategiyasidagi leksik paradigmalar (L.I. Tolstix, N.Y. Sulimenko, I.A. Sternin, V.V. Stepanova, N.S. Bolotnova va b.) hisobga olinadi.

Shu tariqa, bir guruh tadqiqotchilar murojaatlarni tilning sintaktik sathiga mansub deb ta'kidlasa, boshqalar nutqiy aktlar va nutqiy etiketga mansub deb

¹⁴ Шведова Н.Ю. Распространение предложения включением обращения... – С. 164.

¹⁵ Лупашку Т. Г. Обращение и его текстообразующие функции в прозе и поэзии А.С. Пушкина. – Спб., 2007.

biladi. Bizningcha, murojaatlar sintaktik birliklar sifatida nutqiy aktning amalga oshirilishiga ko‘maklashadi, nutqiy etiket vositalaridan biri sanaladi¹⁶.

Tadqiqotimiz uchun matnning ahamiyati katta. M.M. Baxtin va Y.M. Lotmanlarning ta‘rifiga ko‘ra, matn madaniy hodisa bo‘lib, yaratuvchisi tomonidan chuqur o‘ylab yaratilgan javob nutqiy harakatdir. Unda individiumning nutqiy fikrlash tajribasi bo‘yicha ulkan salohiyat mujassamlashgan.

Ma‘lumki, poetik xarakterdagi matnlar sirasida lirika alohida o‘ringa ega, zero u hissiy to‘lqinlanishlar, yorqin taassurotlar, ruhiy kechinmalar, shavqu zavqqa to‘la. Kompozitsiya nuqtai nazaridan lirika bayon siqqligi bilan xarakterlanib, nutqiy aktlar jihatidan ifoda vositalari betakrorligi va noyobligi bilan farqlanadi. V.A. Maslova to‘g‘ri ta‘kidlaganidek¹⁷, poeziyada so‘zning harakatini oldindan belgilab bo‘lmaydi: har bir so‘z konnotativ ma‘nolar bilan to‘yintiriladi, ba‘zan lug‘atlarda e‘tirof etilmagan tamoman yangicha ma‘no kasb etadi, so‘zning o‘zi ham poetik kontekstda torayib yoxud kengayib, o‘zgarishga uchrashi mumkin. V.A. Maslova¹⁸ lirik asarni tushunish uchun quyidagi badiiy vositalarga e‘tibor qaratish lozim degan xulosaga keladi: ritm, fonetik qurollar, so‘zni tanlash va ularning joylashuvi, poetik sintaksis, ushbu vositalar kompozitsiyasi hamda poetik matnda qo‘llanilishi¹⁹.

Poetik asarda “muallif obrazi”, shoirning o‘zi, lirik qahramon va qahramon kabi bir nechta mohiyatlarni o‘zida mujassam etgan shaxs muhim hisoblanadi. Poetik matnda lirik qahramon o‘z nomidan so‘zlaydi, bunda, shubhasiz, kishilik yoki egalik olmoshi qo‘llanilib, uning ichki kechinmalari, ko‘pincha, shaxs fe‘llarining aniq maylidagi kesim-predikat yordamida ifodalanadi²⁰.

Lirik asar badiiy nutqning boshqa turlaridan farqlanadi, zero unga “siqish energiyasi” xos, ya‘ni lirikaning yetakchi xususiyati – hajman kichik asarlarga maksimal darajada katta mazmun joylash, boshqacha aytganda, “iloji boricha qisqa va to‘liqroq so‘zlash”²¹.

L.Y. Maksimovning²² “She‘riy nutqda murojaat” va Y.I. Levinning²³ “Lirika – kommunikativ nuqtai nazardan” nomli maqolalari, shuningdek, I.I. Kovtunovanning²⁴ “Poetik sintaksis” nomli monografiyasi poetik nutqda murojaatni o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, ularda murojaatlarni ifodalash vositalari bayon etilgan, ularning XIX-XX asrlar rus lirikasida qo‘llanilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

¹⁶ Yovkacheva Z. M. Linguistic status of address: Address as a syntactic unit // *Philology Matters*. № 3. Tashkent, 2020. – P. 72-87.

¹⁷ Маслова В.А. Филологический анализ поэтического текста. – Минск, 1999. – С. 30-36.

¹⁸ O‘sha manba. – B. 30–36. ¹⁸ Yovkacheva Z. M. Linguistic status of address: Address as a syntactic unit // *Philology Matters*. № 3. Tashkent, 2020. – P. 72-87.

¹⁹ O‘sha manba. – B. 30–36.

²⁰ Папина А.Ф. Текст: его единицы и глобальные категории. – М., 2002. – С. 93-97.

²¹ Силман Т.И. Заметки о лирике. – Л., 1977. – С. 33.

²² Максимов Л.Ю. Обращение в стихотворной речи // *СРЯ. Ученые записки МГПИ*. – М., 1965.

²³ Левин Ю.И. Лирика с коммуникативной точки зрения // *Structure of texts and semiotics of culture – The Naqul*. – Paris, 1973.

²⁴ Ковтунова И.И. Поэтический синтаксис. – М.: Наука, 1986.

Ta’kidlash joizki, murojaatlar barcha she’riy janrlarda uchrashiga qaramay, 1990-yilga qadar muayyan muallifning poetik matnida ularning qo‘llanishi bo‘yicha tahlillar amalga oshirilmagan.

Shu tariqa, lirik asar asosida murojaatlar qo‘llanishini o‘rganish murojaatning matniy vazifalarini aniqlash imkonini beradi. Til va nutq hodisasi sifatida namoyon bo‘lgan murojaatning to‘liq manzarasi, nazarimizda, mikro va makrokontekstlar miqyosida kompleks tahlillar orqaligina oydinlashadi²⁵.

Dissertasiyaning “**A. Axmatova va M. Svetayevalar lirik personajlari nutqiy aktlarining o‘ziga xosligi**” deb nomlangan ikkinchi bobida A. Axmatova va M. Svetayeva personajlarining nutqiy harkatlari tahlil qilingan, lirik qahramonlarning savolli murojaatlari mavzuli guruhlar bo‘yicha ko‘rib chiqilgan.

A. Axmatova va M. Svetayevalarning lirik asarlaridagi nutqiy aktlar tahlili quyidagilarni ko‘rsatdi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

A. Axmatova va M. Svetayevalar lirik personajlarining verbal aktlari

№	Semantika	A. Axmatova	M. Svetayeva
1.	Iltimos	57	179
2.	Tavallo	25	50
3.	Shikoyat	23	13
4.	Ko‘rsatma/nasihat	6	17
5.	Uzr	11	7
6.	Va‘da	13	3
7.	Tahdid	2	10
8.	Vasiyat	2	2
9.	Sevgi izhori	2	4
10.	Qasam	14	25
11.	Uchrashuv	4	13
12.	Vidolashuv	13	12
13.	Qadahso‘z	3	1
14.	Minnatdorlik	4	12
15.	So‘roq	190	500

Jadvaldagi ma’lumotlarning ko‘rsatishicha, so‘roq ma’noli nutqiy akt yetakchi mavqega ega. Umuman olganda, savol muloqot maqsadi bo‘lib, bunda suhbatdosh berilgan savolga javob berishi kerak. Ammo ko‘pgina tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, so‘roq gaplarning hammasi ham savolga javobni taqozo etmaydi, xususan, javobni talab etmaydigan ritorik so‘roq gaplar bor. N.I. Jinning e’tirof etishicha, “ritorik so‘roq gaplar tarkibida inkor etuvchi yoxud tasdiqlovchi xabar shaklida javob bo‘lganligi uchun javobni talab etmaydi”²⁶. Tamoman boshqacha xarakterdagi so‘roq gaplar ham mavjud, masalan, N.I. Jinning fikricha, “so‘roq gaplarda ham so‘roq mazmuni, ham

²⁵ Yovkacheva Z. M. Addressings in poetic speech // International Conference on Innovative Technology and Future Trends in Education July, 30th 2021. – P. 18-19.

²⁶ O‘sha manba. – P. 18-19.

tasdiqlovchi xabar mazmuni, shuningdek, undov va turli holat mazmuni ifodalanishi mumkin”²⁷.

Olam o‘zgaruvchan va doimiy harakatda, hayotni qabul qilish jarayonida ko‘plab savollar tug‘iladi, ijodkor, doimiy izlanishda bo‘lgan insonlarda yanada ko‘proq savol tug‘iladi. Shu nuqtai nazardan, A. Axmatova va M. Svetayeva so‘roq gaplari orqali o‘z savollariga javob topishga urinadilar. So‘roq mazmuni bo‘lgan nutqiy aktning o‘zi poetik matnda bir nechta vazifani bajaradi: a) so‘roq orqali matn ichida dialogik vaziyat yuzaga keladi: *“И вот вошла. Откинув покрывало, / Внимательно взглянула на меня. / Ей говорю: «Ты ль Данту диктовала / Страницы Ада?»”* Отвечает: *“Я”*²⁸. Keltirilgan misolda lirik qahramonning Muzaga yo‘llagan savoli personajning professional faoliyatini ochishga yo‘naltiriladi, shuningdek, lirik qahramonning dialogdagi o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatadi, zero u sira istihola qilmay oliy kuchlar bilan suhbat olib boradi; b) so‘roq yordamida muallif kontekst faoliyatini aktuallashtiradi va kitobxonni javob izlashga undaydi; d) so‘roq muayyan ta’sirchanlikni yuzaga keltirib, matnning emotsional keskinligini kuchaytiradi: *“Там растила сына я, И текли – вода?/ Дни? Или гусиные Белые стада?”*²⁹ Bu o‘rinda so‘roq konstruksiyalari o‘g‘il o‘stirgan va onalik baxtini, bola tarbiyasini angelay olmagan, qanday yashaganligini ham bilmay qolgan onaning iztiroblarini tasvirlaydi, savol orqali ichki kechinmalar, lirik qahramonning ichki iztiroblari ko‘rsatiladi.

Savol mazmuniga ega nutqiy aktlar orasida *gina, ta’na xarakteridagi savollarni* alohida ko‘rsatib o‘tish joiz. Nazarimizda, bu faqat ayollargagina xos, zero *“sevgilim ham meni sevadimi?”* degan savol doimo ayollarning ich-etini kemiradi, u ham sevimli ekanligiga doimo ishonch hosil qilishi kerak: *“Не в лесу мы, довольно аукать, – / Я насмешек таких не люблю.../ Что же ты не приходишь баюкать / Уязвленную совесть мою?”*³⁰.

Bunday savollar poetik matnda lirik qahramon mohiyatini ochib beradigan dialogik vaziyatni yuzaga keltirishi, suhbatdosh harakatlari obrazini o‘zgartirib yuborishi mumkin: *– Сивилла! Зачем моему Ребенку – такая судьбина? / Ведь русская доля ему... И век ей: Россия, рябина...*³¹. Bu o‘rinda muayyan shaxsga murojaatdan so‘ng, gina ham qilinadi. Hamma onalar singari M. Svetayevaning lirik qahramoni ham o‘z farzandi taqdiridan qayg‘uradi, qo‘lidan keladigan va kelmaydigan jamiki vositalar orqali uni himoya qilishga urinadi.

Lirik matnda, ko‘pincha, *iltimos* bevosita eksplisit ko‘rinishda yoxud bilvosita shaklda ifodalanadi. Iltimosni ifodalashda A. Axmatova aynan ayol mantig‘ini qo‘llaydi: *“О Алиса! Дай мне средство, / Чтоб вернуть его опять, / Хочешь, все мое наследство, / Дом и платья можешь взять”*³². Bu o‘rinda lirik qahramon o‘z iltimosini eksplisit ko‘rinishda ifodalaydi, maqsadiga erishish uchun

²⁷ Yovkacheva Z. M. Addressings in poetic speech // International Conference on Innovative Technology and Future Trends in Education July, 30th 2021. – P. 18-19.

²⁸ Ахматова А. Сочинения. В 2-х т. Т. 1. – М.: Худож. лит. 1990. – С. 173.

²⁹ Цветаева М. Стихотворения. Поэмы. – М.: Изд-во Правда. 1991. – С. 345.

³⁰ Ахматова А. Не тайны и не печали... – Т.: Изд-во лит. и искусства. 1988. – С. 132.

³¹ Цветаева М. Сочинения. В 2-х т. Т. 1. – М., Худож. лит. 1980. – С. 118.

³² Ахматова А. Сочинения. В 2-х т. Т. 1. – М.: Худож. лит. 1990. – С. 39.

borini berishga tayyor: meros, uy, kiyim-kechak, ya'ni xizmat uchun muayyan mukofotni va'da qiladi.

M. Svetayevaning lirik qahramoni iltimosni ifodalash orqali Vatanga muhabbatini izhor etadi: *“Кавказ – грузину, / Мне – мой куст под окном бузинный. / Дайте Вместо Дворцов Искусств / Только этот бузинный куст...”*³³. Ha, hammaga o'ziniki kerak, katta, ulkan narsalar talab qilinadi, ammo M. Svetayevaning lirik qahramoniga keng saroylar, bepoyon sahrolar kerak emas, unga “marjon butasi” kifoya, zero marjon unga uyini eslatadi, aynan shu buta — uning kichik Vatani. Ushbu she'rda iltimos buyruq maylidagi fe'l, ya'ni *дайте* shakli orqali ifodalangan.

A. Axmatova lirik qahramonining unga baho berish, ichki olamini anglash iltimosi *лети, расскажи* singari yumshoq shaklda ifodalangan, M. Svetayevaning lirik qahramoni esa, jamiki tirik mavjudotlarga, do'stiga murojaat qiladi, o'ziga qiziqish uyg'otishga intiladi, shu bilan birga, suhbatdoshi harakatlariga ta'sir ko'rsatishga umid bog'laydi. Umuman olganda, M. Svetayeva lirik qahramonining yuqori verbal dinamikligini ta'kidlab o'tish kerak, bu esa uning she'riyatiga yuqori darajadagi emotsional, ta'sirchanlik bag'ishlaydiki, ular, o'z o'rnida, voqealar dramatikligini ta'minlaydi.

Kommunikantlarning biriga *buyruq* ifodasini nisbatlash mumkin, nazarimizda, buyruq M. Svetayeva ijodida A. Axmatova asarlariga nisbatan ko'proq uchraydi: *“Ты – крылом стучавший в эту грудь, / Молодой виновник вдохновенья – / Я тебе повелеваю: – будь! / Я не выйду из повиненья”*³⁴. Bu o'rinda, M. Svetayevaning lirik qahramoni o'z suhbatdoshiga murojaat qiladi va shoira qo'llagan *повелеваю* leksemasi uning holatini kuchaytiradi, qahramon obraziga hukmdor malikalarga xos qattiqqo'llik va qat'iylik bag'ishlaydi, shu bilan birga, lirik qahramonlarning teng bo'lmagan mavqeiga e'tibor qaratish lozim: qahramon yuqori pog'onada joylashgan bo'lib, uning suhbatdoshi unga qaram, tobe' holatda. A. Axmatovaning lirik qahramoni o'zini boshqacha tutadi – suhbatdoshlari bilan dialogda u hokimlik mavqeiga ega emas, teng mavqeda buyruq beradi va suhbatlashadi, buyruq nisbatan yumshoq shaklda beriladi: *“Люби меня, припомяни и плачь!”*³⁵ / *“Приду и стану на порог,/Скажу: “Отдай мне мой платок!”*³⁶ / *“Греми, громкое сердце!/Жарко целуй, любовь!”*³⁷

A. Axmatova va M. Svetayevaning lirik qahramonlari nutqiy aktida *iltijo*, o'tinchi ko'p qo'llanadi: ular xudoga yolvorishadi (“Боже!”, “О Господи”), ularning iltimoslari (qalbgaga osoyishtalik bag'ishlash va kechirish) noreal (q.: *“Умоляю – пока не поздно,/ Приходи посмотреть наш дом!”*³⁸. – *“Я за нашу веселую дружбу / Всех святителей нынче молю”*)³⁹.

A. Axmatova va M. Svetayeva asarlarida *hasrat-nadomatni* ifodalash uchun turli stilistik vositalar qo'llanadi. Yolvorish mazmunidagi murojaat shoiralari

³³ Цветаева М. Стихотворения. Поэмы. – М.: Изд-во Правда. 1991. – С. 313.

³⁴ Цветаева М. Стихотворения. Поэмы. – М.: Правда, 1991. – С. 111.

³⁵ Ахматова А. Сочинения. В 2-х т. Т. 1. – М.: Художественная литература, 1990. – С. 139.

³⁶ Там же. – С. 69.

³⁷ Цветаева М. Стихотворения Поэмы. – М.: Правда, 1991. – С.57.

³⁸ Цветаева М. Стихи www.culture.ru Ты, сны ещё непробудны...

³⁹ Ахматова А. Не тайны и не печали...: Стихотворения. – Т.: Изд-во лит. и искусства, 1988. – С. 257.

she'riyatining ayollarga xos xarakterini yanada bo'rttiradi. A. Axmatova lirik qahramoni o'z hayotini soatni ishga tushiradigan kimsaga bog'liq kakku umriga qiyos qiladi, bunday taqdirni hech kimga ravo ko'rmaydi, faqat dushmaniga buni tilaydi: *“Я живу, как кукушка в часах, / Не завидую птицам в лесах. / Заведут – и кукую. / Знаешь, долю такую / Лишь врагу пожелать могу я”*⁴⁰.

M. Svetayeva ijodining ilk davrida lirik qahramon og'ir kechgan bolaligidan noliydi, baxt-saodat yo'q mungli va kimsasiz olamdagi hayotdan shikoyat qiladi. Keyingi davr she'rlarida esa, asosan, lirik qahramonning o'z hayoti, yetimligi, ko'ngil vayronaligi bayon qilingan: *“Как нежный шут о злом своем уродстве, / Я повествую о своем сиротстве...”*⁴¹

Ulkan hayotiy tajribaga ega A. Axmatova va M. Svetayeva lirik qahramonlari nasihatgo'ylik va o'gitlarga tez-tez murojaat qilishadi, asosan, oilaviy munosabatlar, ota-onalarning farzandlariga nasihatlar ko'zda tutiladi. Asarlarda pand-nasihatning qo'llanishi lirik qahramonlar adresatga ayrim ahloqiy qoidalar va topshiriqlarni yetkazishda muayyan ustuvorlikka ega ekanliklaridan dalolat beradi, bunda pand-nasihat va o'gitni ifodalashda ular fe'lining buyruq maylidan foydalanishadi, M. Svetayeva lirikasida esa, ko'proq “быт” fe'lining buyruq mayli shakli qo'llanadi.

Uzrni ifodalash uchun ikkala shoira lirikasida turli stilistik vositalar qo'llanadi. Lirik qahramonlar o'z aybini tan olishadi, pushaymon yeyishadi, vijdon azobida qiynalishadi, suhbatdoshlaridan kechirim so'rashadi, bunda “простить” fe'lining kerakli shaklidan foydalanishadi.

Shoiralar o'z asarlarida, ko'pincha, do'q-po'pisan qo'llashadi, bunda A. Axmatovaning lirik qahramoni po'pisan nisbatan yumshoq shaklda qo'llaydi, M. Svetayevaning lirik qahramoni nutqiy harakatlarida po'pisa keskinroq ko'rinishga ega bo'lib, Tangri hukmi haqida so'z boradi, Tangri hammaga qilmishiga ko'ra jazo beradi va hech kimga shavqat yo'q: *“Но помните, что будет суд, / Разящий, как стрела, / Когда над головой блеснут / Два пламенных крыла!”*⁴² Suhbatdoshga ta'sir ko'rsatish maqsadida ular o'z nutqiy aktlarida do'q-po'pisa qo'llashga to'la haqlidirlar, maqsadga erishish yo'lida hozirgi yoki kelasi zamon buyruq maylidagi fe'l shakllaridan foydalanishadi (*Будешь помнить целый год – чернокнижницу!*⁴³).

A. Axmatova va M. Svetayeva matnlarida turli nutqiy janrlar bilan bir qatorda, turli shakldagi va'dalar qo'llanadi, bu ularga o'z niyatlarini ifodalash imkonini beradi, o'z niyatlarini ifodalashda lirik qahramonlar *обещать* fe'lining 1-shaxs shaklidan ko'proq foydalanishadi: *“И обещаю: не будет биться / В окна твои – золотая птица!”*⁴⁴

Syemantikaga ko'ra, “обещание” so'ziga “клятва” leksemasi yondosh. A. Axmatova va M. Svetayevalarning lirik qahramonlari “клясться” fe'lini to'g'ri ma'noda hozirgi zamon 1-shaxs shaklida qo'llashadi, ammo ont har doim ham

⁴⁰ Axmatova A. Сочинения. В 2-х т. Т.1. – М.: Изд-во Худож. лит., 1990.. – С. 30.

⁴¹ Цветаева М. Стихотворения Поэмы. – М.: Изд-во Правда. 1991 – С. 169.

⁴² Цветаева М. Сочинения. В 2-х т. Т. 1. –М.: Изд-во. Худож. лит. – С. 40.

⁴³ Цветаева М. Стихотворения. Поэмы. – М.: Изд. Правда. 1991 – С. 60.

⁴⁴ Цветаева М. Собрание сочинений. В 2-х т. – С. 254.

eksplisit ifodalanavermaydi. Masalan, A. Axmatovada qasam “забуду”, “сохраню”, “не забуду” fe’l shakllari yordamida implisit ifodalanib, nimagadir tantanali va’da berish mazmunining o’zi faqat kontekstdagina namoyon bo’ladi.

Shoiralar lirikasida xulq-avtor bilan bog’liq nutqiy aktlar qo’llangan bo’lib, *uchrashuv* yoxud *xayrlashish* vaziyatlarini ifodalashadi. “Здравствуй”, “до свидания”, “прощай”, “добрый путь” so’zlari poetik matnda yangi semantik bo’yoqdorlik bilan to’yinadi. A. Axmatova she’rlarida lirik qahramon xayrlashuv chog’ida (*прощай, прощай*) o’z nutqiy aktlarida po’pisani qo’llaydi (*но берегись*), bu esa o’ziga xos bo’yoqdorlik kasb etib, alohida o’ziga xoslikni ta’minlaydi.

Qadahso’zi ma’nosi ifodalangan nutqiy akt o’ziga xos semantik ma’no kasb etadi, minnatdorchilik ifodalangan murojaatlar xulq-atvor nutqiy aktlarining alohida guruhini tashkil etadi. M. Svetayeva lirik asarlarida qahramon minnatdorchilik so’zlari (*спасибо*) bilan nafaqat jonli mavjudotlarga, balki jonsiz predmetlarga ham murojaat qilishi mumkin: “*Мой письменный верный стол! / Спасибо за то, что шел / Со мною по всем путям. / Меня охранял – как шрам*”⁴⁵, “спасибо” so’zini qo’llash orqali shoironing dialog qatnashchilari orasidagi masofani qisqartirishga bo’lgan urinishi yaqqol namoyon bo’lgan. A. Axmatova lirikasiga xos xususiyatlardan biri “благодарить” fe’lini ko’proq ishlatishi bo’lib, uning yordamida she’rning ritorik pafosi kuchaytiriladi.

M. Svetayeva va A. Axmatova lirikasida *sevgi izhori* nutqiy aktining kam uchrashi qayd etiladi. Masalan, M. Svetayevaning lirik qahramoni to’g’ridan-to’g’ri shunday deydi: “*Пригвождена к позорному столбу, / Я все ж скажу, что я тебя люблю*”⁴⁶, A. Axmatova lirik qahramoni esa, syevgi izhorini implisit, yashirin shaklda, muhabbat tuyg’ulariga bo’lgan shamalar orqali ifodalaydi: “*Мне с тобой как горе с горою... / Мне с тобой на свете встречи нет. / Только б ты полночною порою / Через звезды мне прислал привет*”⁴⁷.

A. Axmatova va M. Svetayeva lirikasida *vasiyat* nutqiy akti nisbatan kam qo’llanilgan, bunda lirik qahramonlar “завещать” fe’lining hozirgi zamon 1-shaxs shaklini qo’llab, o’limidan oldin o’z amrini aytib ketadilar, shuningdek, yashash joyi va hayot tarzini tanlashda to’la erkinlikni izhor etishadi.

Shu tariqa, A. Axmatova va M. Svetayeva lirik qahramonlari nutqiy aktlarining qiyosiy tahlili ularning o’ziga xosligi va mavzular ko’lamini aniqlash, ichki olamini yoritish, iztiroblari, ichki kechinmalari va xavotirlarini ko’rsatish imkonini beradi. Bizning fikrimizcha, rang-barang tuyg’ular aks etgan lirik qahramonlarning nutqiy aktlari poetik matnlar ekspressiv jadallashtiradi. Shoiralarning lirik qahramonlariga xos individual nutqiy aktlarda ham umumiy jihatlar, ham atrofdagi olamga bo’lgan tamomila o’zgacha qarashlar o’z ifodasini topgan.

So’roq gap shaklidagi murojaat mavjud bo’lgan nutqiy akt voqelikning individual ifodasi bo’lmish poetik olam dialogik munosabatlarni modellashtirishda yetakchilik qiladi.

⁴⁵ Цветаева М. Стихотворения. Поэмы. – М.: Правда, 1991. – С. 319.

⁴⁶ Цветаева М. Избранные произведения. – Минск: Мастацкая литература, 1984. – С. 107.

⁴⁷ Ахматова А. Сочинения. В 2-х т. Т. 1. – М.: Худож. лит, 1990. – С. 228.

So‘roqlar tasnifi “Grammatika-80” tipologiyasi asosida amalga oshirildi va ishonchli ekspressiv bo‘yoqdorlik ega tasdiq hamda inkor ma’noli so‘roqlarni aniqladik: aniqlashtiruvchi so‘roq, nimagadir undovchi so‘roq, so‘zlovchining emotsional reaksiyali so‘rog‘i, diqqatni faollashtirish maqsadli so‘roq. Inkor ma’noli so‘roqlarning yetakchiligi shoiralarning shaxsiy fikr ifodalash, nimadandir norozilikni namoyon etishga bo‘lgan intilishlaridan dalolat beradi.

Lirik qahramonlarning so‘roq konstruksiyali qolgan nutqiy aktlarini birlamchi vazifalarni bajarish nutqai nazaridan funksional-semantik turlarga ajratdik. Birinchi guruhga so‘roq konstruksiyali nutqiy aktlarni kiritdik, ular: javobda kutilayotgan axborot xarakteri hamda hajmiga qarab sodir bo‘layotganlar haqida javob sifatida nazarda tutilayotgan umumiy so‘roqlar bo‘lgan nutqiy aktlarga hamda xususiy so‘roqli nutqiy aktlarga bo‘linadi.

Lirik qahramonlarning so‘ralayotgan narsa to‘g‘risida xabardorlik/xabarsizlikni ifodalaydigan so‘roq konstruksiyali nutqiy aktlari (q.: *“Отчего ты сегодня бледна?”*⁴⁸. – *“Кто бросил розы на снегу?”*⁴⁹) va mavhumlik, taxmin, xavotir kabilarni o‘z ichiga olgan so‘roqlar ikkinchi guruhni tashkil etdi: *“Я гадаю. Кто там? Не жених ли, / Не жених ли это мой?”*⁵⁰ ; *“Как эти солнца, – прощу ли себе сама? – / Как эти солнца сводили меня с ума!”*⁵¹

Kutilayotgan javobni o‘z ichiga olgan so‘roqlar uchinchi guruhni tashkil etadi. Bunday so‘roq konstruksiyalari orasida tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi javobni taqozo etuvchi so‘roqli nutqiy aktlar (q.: *“Здравствуй! Легкий шелест слышишь/Справа от стола?”*⁵²//*“Ах на цыганской, на райской, на ранней заре – /Помните утренний ветер и степь в серебре?”*⁵³) va javobida axborotni talab etuvchi so‘roq konstruksiyalari ajralib turadi: *“Долго шел через поля и села,/Шел и спрашивал людей: / Где она, где свет веселый / Серых глаз – ее очей?”*⁵⁴ *“Мой милый, что тебе я сделала?”*⁵⁵

So‘roq konstruksiyalaridagi semantik ma’no nuqtai nazaridan A. Axmatova va M. Svetayeva lirikasida ko‘proq axborot olishga qaratilgan so‘roqlar kuzatiladi. Poetik matnda qo‘llangan so‘roq matn ekspressivligini kuchaytiradi, bunda nafaqat kompozitsiyani tashkil etish funksiyasini bajaradi, balki lirik she’r dialogikligini ham oshiradi.

So‘roqli murojaatlarning kommunikativ yo‘nalganligi nuqtai nazaridan lirik qahramonlarning o‘ziga berilgan savolli nutqiy aktlari uchraydi, bu esa ularning o‘z ichki kechinmalarini tushunish, qalb tug‘yonlari, evrilishlarini anglashga bo‘lgan intilishlarini namoyon etadi. Shuningdek, yorlariga, shoiralarning dindorligi va ilohiy kuchlarga ishonishidan dalolat beruvchi Yaratganga va barcha

⁴⁸ Ахматова А. Сочинения. В 2-х т. Т. 1. – М.: Худож. лит., 1990. – С. 25.

⁴⁹ Цветаева М. Стихотворения. Поэмы. – М.: Правда., 1991. – С. 108.

⁵⁰ Ахматова А. Я гадаю. www.culture.ru

⁵¹ Цветаева М. Сочинения. В 2-х т. Т. 1. – М.: Худож. лит., 1980. – С. 49.

⁵² Ахматова А. Сочинения. В 2-х т. Т. 1. – М.: Худож. лит., 1990. – С. 58.

⁵³ Цветаева М. Сочинения. В 2-х т. Т. 1. – М.: Худож. лит., 1980. – С. 96

⁵⁴ Ахматова А. Сочинения. В 2-х т. Т. 1. – М.: Худож. лит., 1990. – С. 112.

⁵⁵ Цветаева М. Сочинений. В 2-х т. Т. 1. – М.: Худож. лит., 1980 – С. 143.

ilohiy kuchlarga murojaatli so‘roqlar, real suhbatdoshlar va mavhum ismlarga bo‘lgan so‘roqlar mavjud.

Lirik qahramonlarning noverbal muloqot vositalari katta ahamiyat kasb etadi, ularning eng muhimlari – turli xil ma’no kasb etadigan qo‘l harakatlari. Masalan, lirik qahramonlarning o‘ziga yoki o‘zidan yo‘nalgan qo‘l harakatlari yopiqlik, begonasirash, so‘zlovchilar o‘rtasida masofa borligini kabilarni ifodalab, predmetlar, misol uchun, yengcha, ro‘mol, vualni qo‘llash orqali yanada kuchaytirilishi mumkin. Ochiq qo‘llar orqali lirik qahramonlar suhbatdoshiga bo‘lgan ishonchini ifodalashadi. “Quchoqlash” harakati sevgidan dalolat berib, tuyg‘ular kuchini namoyon etadi, taktil harakatlar tuyg‘ular rang-barangligini – befarqlikdan tortib telbalarcha oshiqlikni ifodalashi mumkin, ushbu ishoralar vazifasini aniqlashda kontekstning ahamiyati katta.

M. Svetayevaning lirik qahramoni yoxud ichki olamning bepoyonligini, ochiqligini yoxud cheksiz g‘am-qayg‘u, chorasizlik, tanholikni ifodalovchi yorqin imo-ishoralarni qo‘llaydi, A. Axmatova lirik qahramonining noverbal muloqot vositalari ogohlik, ehtiyotkorlik, mulohazakorlik kabilar bilan xarakterlanadi.

Dissertasiyaning “**A. Axmatova va M. Svetayeva lirikasida murojaatlarning qo‘llanishi**” nomli uchinchi bobida murojaatlarning struktur-semantik turlari hamda vazifalari ko‘rib chiqilgan.

Aksariyat murojaatli she‘rlarning yarmidan ko‘pi yig‘iq gap turiga mansub bo‘lib, turli so‘z turkumi ko‘rinishida taqdim etilgan.

Ot so‘z turkumi bilan ifodalangan murojaatlarning aksariyati shoirlar tomonidan aniq adresatlarni ifodalashda qo‘llanilgan. M. Svetayeva lirikasiga ot so‘z turkumi bilan ifodalangan takroriy murojaatli, yoyiq aniqlovchili yig‘iq murojaatlardan foydalanish xarakterli bo‘lib, bu murojaatga adresatning subyektiv xarakteristikasini ifodalash imkoniyatini beradi, muallifga yaqinligini ta’kidlaydi, uning ahamiyati, qudrati, unga bo‘lgan ijobiy munosabatini kuchaytiradi. Shu bilan birga, takror adresatni shunday bayon obyektiga aylantiradiki, u sodir bo‘layotgan voqealar markaziga aylanadi.

A. Axmatova lirikasida ham yig‘iq va yoyiq murojaatlarni qo‘llash an’anasi kuzatiladi. Ammo aniqlovchi bilan ifodalangan yig‘iq murojaatlarni qo‘llaydigan M. Svetayevadan farqli o‘laroq, A. Axmatova *ты* olmoshi bilan ifodalangan murojaatlarni qo‘llaydi (*Это рысьи глаза твои, Азия, Теперь прощай, столица, Ива, дерево русалок, Муза! ты видишь, как счастливы все – Девушки, женщины, вдовы...*) в сочетании с распространёнными обращениями (*А за ней в шинели и каске / Ты, вошедший сюда без маски, / Ты, Иванушка древней сказки, / Что тебя сегодня томит?*).

Ta’kidlash joizki, M. Svetayeva lirikasi otlashgan sifatlar bilan ifodalangan yig‘iq murojaatlar ko‘p qo‘llanishi bilan xarakterlanadi. Bunday murojaatlar predmetning keng ko‘lamli mazmunini hamda chuqur ifodaviy belgilarini o‘zida mujassam etib, yig‘iq murojaatlarga qaraganda mazmunan aniqdir. Bunday murojaatlarning sanab o‘tilgan barcha afzalliklari jami she‘rlarning poetik vaznini saqlash sharti bilan qahramon xarakteri, uning asosiy jihatlari va xususiyatlarini yorqin ifodalash imkonini beradi, muallifning unga bo‘lgan munosabatini qisqa va aniq shaklda ifodalashga xizmat qiladi.

A. Axmatova lirikasida personaj obrazini ifodalashda o undovli murojaatlar qo'llanadiki, ular yoki gap tarkibiga kiradi, yoki mustaqil gap sifatida qo'llangan (q.: *О милые улики*).

Tahlillar ko'rsatishicha, bu ikki shoira lirikasida yig'iq murojaatlardan foydalanish an'anasi kuzatiladi, ular turdosh qatorni namoyon etib, otlashgan sifatlar orqali ifodalanadi.

Zamonaviy rus tilida keng qo'llanadigan yoyiq murojaatlarning turlaridan biri – yakka aniqlovchi o'rnida qo'llanadigan modeldir⁵⁶. A. Axmatova va M. Svetayeva ijodida “ot + sifat” modelidagi murojaatlar ko'p uchraydi. Bunday murojaat shakli lirik adresatning xarakterli xususiyatlarini, uning ichki tug'yonlari va evrilishlarini ifodalashda keng qo'llanadi: “*Слава тебе, безысходная боль!*”⁵⁷

M. Svetayeva ijodida “ot + yakka aniqlovchi o'rnidagi olmosh” bilan ifodalangan yoyiq murojaatlar faol qo'llanadi. Bu esa, ushbu usulni shoira ijodining xarakterli xususiyati sifatida belgilash imkonini beradi. Shuningdek, M. Svetayeva barcha o'rinlarda *мой* egalik olmoshini qo'llaydi: “*Тише, тише, тише, век мой громкий!// За меня потоки – и потомки*”⁵⁸. Ushbu murojaatda adresatga bo'lgan o'zgacha munosabatdan tashqari, nafaqat shoiraga yaqinlik, balki lirik qahramonning she'rdada sodir bo'layotgan voqealarga daxldorligi kuzatiladi. Bu o'rinda aynan shunday murojaatning qo'llanishi adresatni sodir bo'layotgan voqealar pozitsiyasini egallashga majbur qiladi.

M. Svetayeva asarlarida lirik qahramonlar o'z nutqiy aktlarida “ot + ot” modelida ifodalangan yoyiq murojaatlarni kam qo'llaydilar, ikkinchi ot yakka gap pozitsiyasini egallaydi, bunday formula muayyan nominal shaxsga murojaatdagina qo'llanadi. Shu bilan birga, jonsiz, mavhum tushuncha bilan ifodalangan adresatga nisbatan ko'rsatilgan turdagi murojaatlarni qo'llash holatlari kuzatiladi.

A. Axmatova, ko'pincha, ikkita ot so'z turkumi bilan ifodalangan yoyiq murojaatlardan foydalangan: “ot + moslashmagan aniqlovchi o'rnidagi ot”.

A. Axmatova lirikasida uchraydigan murojaatlar turini o'rganish katta hajmli yoyiq konstruksiyalar ko'p qo'llanishini ko'rsatdi. Xususan, bu murojaat sifatida qo'llanadigan sifatdosh oborotli otlar, ular sifatdosh bilan ifodalangan murojaatlardan yuqori darajadagi ekspressivligi bilan ajralib turadi. Odatda, bunday murojaatlar nutqqa ayrim hollarda qutbiy bo'yoqdorlik bag'ishlaydi: erisha olmaslik xarakteri, muayyan tantanavorlik, umidsizlik. Bunday murojaatlar eng sodda yoyiq konstruksiyalardan nomdorligi va muayyan darajada muallifning adresatga bo'lgan tuyg'ularini bo'rttirib ko'rsatishi bilan farqlanadi.

Ta'kidlash joizki, A. Axmatova va M. Svetayeva murojaatlarni o'zining asosiy funksiyasi – undash-chaqirish ma'nosida qo'llashadi. Bunday murojaatlar lirik asarda muhim rol o'ynaydi, zero poetik bayonga mantiqiylik, bog'liqlik bag'ishlaydi, boshqa qahramonlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning xulq-atvori, nutqi, turli yoshdagi personajlar spetsifikasi, ularning qarash va intilishlarini ochish fonida ularni oldingi fonga yaqinlashtiradi.

⁵⁶ Ковтунова И.И. Поэтический синтаксис. – М., 1986. – С. 136.

⁵⁷ Axmatova A. Сочинениуа. В 2-х т. Т. 1. – М.: Худож. лит., 1990. – С. 42

⁵⁸ Цветаева М. Тише, тише, тише век мой громкий... www.culture.ru

Shartli chaqirish vazifasini bajaradigan murojaatlar ham ko'p qo'llanadi, bu esa lirik adresatga nisbatan muallif pozitsiyasini ifodalash, adresat diqqatini tortish imkonini beradi, shoiralarga xususiy qiziqishi evaziga ham, ma'lum sabablar ta'siri hisobiga ham suhbatdosh obrazini detallashtirish imkoniyatini beradi. Bunday holatlarda murojaatlar otlashgan sifatlar orqali ifodalanadi. Otlashgan aniqlovchilar orqali ifodalangan yoyiq murojaatlar qahramonning xarakterli xususiyatlarini to'ldiradi, zero lirik qahramonlar tomonidan poetik matnda murojaatlarning qo'llanishi orqali shaxsiy individual belgilar ko'rsatiladi, ularning ahamiyati oshiriladi.

Shoiralar gapda bittagina shunday murojaatni kamdan-kam hollarda qo'llashadi. Odatda, ular yoyiq murojaatlar va metaforali murojaatlarni, shuningdek, *moй* olmoshi bilan ifodalangan murojaatlar, shuningdek, emotsional jo'shqinlikni ifodalovchi ko'plab shakllarni qo'llaydilar. Masalan, A. Axmatova lirikasida ot so'z turkumini ifodalashda yangilik bor, u orqali bosh harf bilan yoziladigan murojaatlar ifodalangan. Bunday bir ko'rinishda arzimas o'zgarish poetik matnga yangicha ma'no bag'ishlab, tartib-taomil xarakterini kasb etadi. Shoira murojaatida adresatni ilohiylashtirish ko'zga tashlanadi.

A. Axmatova lirik asarlarida adresli murojaatlar ko'p uchrab, ular orasida metafora-murojaatlar katta o'rin tutadi. A. Axmatovanning lirik qahramoni o'z nutqiy aktlarida jonsiz predmetlar va mavhum tushunchalarga murojaat qilishni ma'qul ko'radi, ular jonlantiriladi, barcha tuyg'ular, kechinmalar, xavotirlar kuchayadi va keskinlashadi. Shu tariqa, A. Axmatova murojaatlarni qat'iy chaqiruv vazifasida qo'llaydi.

A. Axmatova va M. Svetayevaning lirik qahramonlari barcha tuyg'ulari va kechinmalarini o'z nutqiy aktlarida murojaatlar orqali avtokommunikatsiya, ya'ni o'zi va o'z fikrlari bilan dialog orqali ifoalashadi.

A. Axmatova va M. Svetayevalar, ko'pincha, inson ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan tarzda sodir bo'ladigan o'zga olam, o'tkinchi dunyo va g'ayrioddiy voqealarni tasvirlashadi. Murojaatlar orqali ularni jonlantirish orqali lirik qahramon va bu hodisalar o'rtasida o'xshashlik yuzaga keladi, ular ham efemerlik kasb etadi. Qahramon obrazini ifodalashda shoiralalar tomonidan turli predmetlarning qo'llanishi ham katta rol o'ynaydi. Bunday predmetlarni jonlantirish orqali lirik qahramon ko'nglidan kechayotgan ajib tuyg'ular palitrasi yetkaziladi, kontrastlik va kichik, ammo muallif uchun muhim detallar kuchaytiriladi. Jonsiz predmetlarni jonlantirishning bunday usuli butun boshli she'rlarning yaralishiga asos bo'ladi. Odatda, bunday parallelizm birinchi va to'rtinchi bandlardagi murojaatlar hisobiga amalga oshiriladi. Murojaat-metaforalar shoirning vatanparvarlik ruhidagi lirik asarlarida alohida ahamiyat kasb etadi. Murojaatlarni qo'llash orqali muallif Vatan obraziga insoniy xislatlarni ko'chiradi. She'rning jarangdorligini oshirish, unga pafos hamda badiiylik bag'ishlash uchun, ko'pincha, o'undovli murojaatlar qo'llanadi.

Bunday turdagi murojaat gap tarkibidan tashqarida bo'lganida o'zgacha ohang kuzatiladi. Bu holda urg'u yanada yorqin, muhim markaziy personaj sifatida lirik qahramonga beriladi.

Ikkala shoira lirik qahramonlari uchun umumiy bo'lgan jihat – murojaat-boshlanmalarni qo'llash. Bunda murojaatlar to'g'ri ma'noda she'ri boshlab berib, asarning bosh mavzusi va uning asosiy obrazlarini belgilab beradi. Ammo murojaat-boshlanmalar gap o'rtasida ham qo'llanishi mumkin, bunda murojaatlar, asosan, tinglovchi (muallif) uchun qahramonni ko'rsatish vazifasini o'taydi, ammo uning e'tiborini tortish vositasi emas.

Shartli-chaqirish vazifasi ifodasi – o'z ismiga ega poetik qahramonlarga murojaatlardir. Bunday murojaatlarni poetik qonunlar, o'ziga xos shartli-sentimental uslub belgilariga kiritish mumkin.

Ayrim she'rlarda A. Axmatova va M. Svetayeva lirik qahramonlari verbal xulq-atvorida o'z nutqiy harakatlari o'rtasida murojaatlarni qo'llashadi, bunda murojaatlar aniqlashtirish funksiyasini bajaradi. Bunday murojaatlar *ты* olmoshi bilan birga qo'llanadi, bunday hollarda murojaat muallif kimni nazarda tutganligini ifodalaydi.

Shu tariqa, mualliflar gap oxirida keladigan murojaatlarni kamroq qo'llashadi. Murojaatlar ko'p hollarda buyruq maylidagi fe'l ishtirokidagi undov gaplarda qo'llanib, undovning ma'no bo'yoqdorligini kuchaytiradi. Ularda muallifning markaziy obrazga nisbatan pozitsiyasi, gap so'ngida keltirilgan, murojaatlar uyushiq qatori orqali ifodalangan his-tuyg'ulari kengligi ko'rinadi.

Gap boshida murojaatlar adresatni ko'rsatish vazifasini o'taydi, shuningdek, uni chaqiradi. Muallif gap boshiga *o* undovli murojaatlarni, jumladan ritorik murojaatlarni chiqaradi: “*О, сказавший, что сердце из камня*”⁵⁹.

A. Axmatovaning lirik qahramoni o'z nutqiy aktlarida suhbatdoshiga murojaat qilishda o'zaro munosabatlarini, aloqasini to'laroq ifodalash va o'z nutqiga ifodalilik hamda emotsionallik bag'ishlash uchun *ot*, sifat, olmoshlarni aralash qo'llaydi: “*ot + sifat yakka aniqlovchi vazifasida + yakka aniqlovchi vazifasidagi olmosh*”, ba'zan o'z tuyg'ularini kuchaytirish uchun *o* undovi qo'llanadi: “*Не любишь, не хочешь смотреть?/ О, как ты красив, проклятый!*”⁶⁰.

She'r avvalida lirik qahramon murojaatining o'rni muallifning personajga bo'lgan ijobiy munosabatini kuchaytiradi. Lirik qahramon nutqiy aktlarida *мой* olmoshli “*otlashgan sifat + yakka aniqlovchi vazifasidagi olmosh*” tipidagi yoyiq murojaatlarning qo'llanishi keng uchraydi.

Gap boshida lirik qahramon bir nechta murojaatni qo'llashi mumkin, bunda ularning biri yig'iq, boshqasi esa yoyiq bo'lishi mumkin, bunda u suhbatdosh haqidagi axborotni aniqlashtiradi, ya'ni mohiyatan birinchi murojaatni kengaytiradi.

A. Axmatova lirikasida nutqiy akt o'rtasida murojaatni qo'llash ko'p uchraydi, bunda suhbatdosh lirik qahramon diqqat markazida bo'ladi. Ba'zan lirik qahramon o'z nutqiy aktlarida *милый* murojaatni qo'llab, bu bilan suhbatdoshning uning uchun ahamiyati va qadrini ta'kidlab ko'rsatadi (q.: *Я ответила: “Милый, милый!/ И я тоже. Умру с тобой...”*)⁶¹. (2-jadvalga qarang).

⁵⁹ Ахматова А. Сочинения В 2-х т. Т. 1. – М.: Художественная литература, 1990. – С. 46.

⁶⁰ Ахматова А. Сочинения В 2-х т. Т. 1. – М.: Художественная литература, 1990. – С. 28

⁶¹ O'sha manba. – B. 28.

A. Axmatova va M. Svetayeva she'riyatida so'z turkumlarining ishlatilishi

So'z turkumlari	A. Axmatova	M. Svetayeva
Ot	Теперь прощай, столица , Ива , дерево русалок, Мы с тобою сегодня, Марина , По столице полночной идем.	Деревья , как взломщики, лезут! Я полюбила Вас, Анна Ахматова . Помолись, Москва , ложись, Москва , на вечный сон!
O + ot.	О Муза , его не зови, О Алиса! дай мне средство, Чтоб вернуть его опять. “ О принц! – улыбаясь, присела.”	На лугах твоих, о Русь На губах твоих, о страсть! О, дни, где утро было рай
Substan. sifat / sifat / sifatdosh	Знаю, милый , можешь мало Холодный, белый , погоди, Я тоже мраморною стану. Ты, тихая , сияешь предо мною. О, как ты красив, проклятый!	Милая! — ведь все сбылось Послушайте, мертвый , послушайте, милый : Перекреститесь, родные , если Что и попритчилось.
Мой+ot/ot+мой	Душа моя , не тронь и не ищи... Прощай, весна моя!	Ох ты барская, ты царская моя тоска! Уезжай, уезжай же, мой рыцарь
Sifat.+ot/ ot+sifat	Для чего ты, лихой ярославец , Мурка серый , не мурлычь,	Милый луг , тебя мы так любили, – Проходите, господин хороший!
O+sifat.+ot	О вольные мои друзья , О лебеди мои!	О холодная ложь Манекенных колодок.
Мой+sifat/ sifat+мой	А ты, мой дальний , неужели Зла, мой ласковый , не делай	Мой хладнокровный, мой неистовый Вольноотпущенник — прости!
Мой+sifat+ ot	Мой знаменитый современник , Мой счастливый , богатый наследник!	Только ты, мой блудный брат , Будь счастливым, мой маленький друг!
O+мой+ot	О ангел мой , не знай, не ведай	Принимать венец, О мой первенец!

Yoyiq murojaatlar	Вы, века прошлого дряхлеющий посев! И кажется, нечем дышать... Ты – солнце моих песнопений!	Ты, зеленоводный лесной ручей, Расскажи, как сегодня ночью Прощай, грех снежком покрытый!
Takror murojaatlar		Рыцарь, рыцарь, Стерегущий реку Ветер, ветер, выметающий,
Ot.+ot. qaratqich kelishigi shaklida		Тебя пою, родоначальник ночи, Моим ночам и мне сказавший: будь. Красно твое наследие, – владей, Друг без друзей!

Ushbu ma'lumotni foiz ko'rinishida quyidagicha taqdim etish mumkin (3-jadvalga qarang).

3-jadval

A. Axmatova va M. Svetayeva she'riyatida so'z turkumlarining ishlatilish nisbati

№	So'z turkumlari	A. Axmatova	M. Svetayeva
1.	Ot	32.2%	64%
2.	O + ot.	2.4%	6.4%
3.	Substan. sifat / sifat / sifatdosh	19%	5%
4.	Мой+ot/ot+мой	4%	13%
5.	Sifat.+ot/ ot+sifat	17%	21%
6.	O+sifat.+ot	4.8	0.33%
7.	Мой+sifat/sifat+мой	6.4%	1%
8.	Мой+sifat+ ot	4%	2.37%
9.	O+мой+ot	0.86	0.33%
10.	Yoyiq murojaatlar	9%	3.7%
11.	Takror murojaatlar	–	2.71%
12.	Ot.+ot. qaratqich kelishigi shaklida	–	1.35%

Ikki bosh bo'lakli gaplarda murojaat, odatda, egadan so'ng keladi. A. Axmatova asarlarida ega murojaatdan so'ng kelishi mumkin. *Ты* egasi va murojaati lirik qahramon nutqiy aktlarining turli qismlarida joylashishi mumkin.

Hol bo'lagi qatnashgan so'roq gaplarda murojaat vaziyat holi va o'rin holi o'rtasida joylashgan bo'lib, bunda vaziyat holi suhbatdoshning o'zini qanday tutishini, murojaatdan so'ng esa o yuklamasini qo'llagan o'rin holi qo'llanishi

mumkin: *“И дал мне три звезды,/ Не подымая глаз./ О милые улики,/ Куда мне спрятать вас?”*⁶².

A. Axmatovaning his-hayajon, undov gaplarga to‘la she‘rlariga murojaatlarni alohida gaplar sifatida shakllantirish xosdir.

XULOSA

1. Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda murojaatlar, ularni nutqda ifodalash, qurilmalardagi o‘rni masalasi yoritilgan, ammo olimlar murojaatlar mohiyatini tushunish borasida yakdil emaslar. Poetik matndagi murojaatlarning semantik-funksional xususiyatlari tadqiqi alohida diqqatga sazovor. Lirik qahramonlarning nutqiy aktlarda qo‘llagan murojaatlari tahlili ularni muallif va kitobxonning o‘zaro aloqasi sifatida ko‘rish imkonini beradi.

2. A. Axmatova va M. Svetayevaning lirik qahramoni lisoniy shaxs sifatida o‘rganildi. Bu ularning nutqiy harakatlariga xos xususiyatlarni ko‘rsatish, ularning ichki olamini, qalb tug‘yonlarini, xavotirlarini, kechinmalarini yoritish imkonini beradi. A. Axmatova va M. Svetayevaning lirik qahramonlari nutqiy aktlari o‘ziga xosligi, o‘zgachaligi bilan xarakterlanib, ularning barcha verbal hamda noverbal muloqot vositalari ichki olamlarini yoritishga qaratilgan.

3. A. Axmatova va M. Svetayeva qahramonlarining murojaatlarni o‘z ichiga olgan nutqiy harakatlari noodatiy bo‘lib, so‘roq, buyruq, iltijo, nasihat, uzr, tahdid, va‘da, ont, qadahso‘z, salomlashish, xayrlashish kabilarni o‘z ichiga olishi mumkin. Ikkita buyuk shoira lirik qahramonlariga individual nutqiy harakatlar xos bo‘lib, ularda ham umumiy jihatlar, ham atrofdagi olamga bo‘lgan turli nuqtai nazarlar ko‘rinadi.

4. So‘roq yordamida bir nechta funksiya amalga oshiriladi: a) dialogik vaziyat yaratiladi; b) kontekst harakati mujassam bo‘ladi; v) nutqning emotsionalligi va ekspressivligi kuchaytiriladi. A. Axmatova va M. Svetayeva lirik qahramonlarining savollari tasdiq, shubha, inkor, ishonch, hayrat, tushunmovchilik kabilarni ifodalashi mumkin; ular ilohiy kuchlar, suyukli yorlari, real shaxslar, mavhum nomlarga qaratilgan bo‘lishi mumkin. A. Axmatova ijodi uchun suhbatdoshlar lirik qahramonlarga beradigan savollar xarakterli. So‘roqlardan iborat nutqiy harakatlar lirik qahramonlar obrazi, ularning ichki shubhalari va ikkilanishlari, ko‘ngil evrilishlarini yanada yaqqolroq ifodalashga xizmat qiladi.

5. A. Axmatova va M. Svetayeva lirikasidagi iltimos, tavallo, buyruq, do‘q-po‘pisa kabi nutqiy aktlar dialogning pragmatik yo‘nalganligini oshiradi, suhbatdoshlar o‘zaro munosabatlarini ochib beradi. Bunda A. Axmatova lirik qahramoni tilida ular nisbatan yumshoq jaranglaydi, M. Svetayeva lirik personaji esa, qattiq va keskin murojaat qiladi.

6. A. Axmatova va M. Svetayeva lirik qahramonlari qo‘l yordamidagi noverbal muloqot vositalarini ham qo‘llaydilar, bunda ba‘zi bir farqlar kuzatiladi: M. Svetayeva lirik qahramoni o‘zining noverbal harakatida cheksiz ichki olam, ochiq qalb yoxud cheksiz g‘am-qayg‘u, chorasizlik, tanholik kabilarning ramzi

⁶² Axmatova A. Сочинения В 2-х т. Т. 1. – М.: Художественная литература, 1990. – С. 53.

bo‘lmish yorqin ifodalangan imo-ishoralarni qo‘llaydi. A. Axmatova lirik qahramonining noverbal muloqot vositalari katta ehtiyotkorlik, ogohlik, mulohazakorlik kabilar bilan xarakterlanadi.

7. A. Axmatova va M. Svetayeva lirikasida mavhumlik, noaniqlik ma’nolarini mujassam etuvchi otlar bilan ifodalangan murojaatlar faol qo‘llanadi, bu esa shoiralarga his-tuyg‘ular, kechinmalar ranginligi va kuchini ifodalash, shuningdek, suhbatdoshni ta’riflash imkonini beradi. Yig‘iq murojaatlarning takrorlanishi, undovli alohida gaplar sifatida shakllantirilishi, uyushiq bo‘laklar bo‘lishi mumkin, ko‘pincha, otlashib, ham adresatga, ham predmetga qaratilishi mumkin.

8. Yoyiq murojaatlar orasida “ot + sifat”, “ot + yakka aniqlovchi vazifasidagi olmosh”, “ot + moslashmagan aniqlovchi vazifasidagi ot” modeli ko‘p uchraydi, “ot + ot” modeli nisbatan kam qo‘llangan.

9. Ikki shoira she’rlarida *опыт* murojaati qo‘llanilib, u ham murakkablashgan, ham murakkablashmagan shakllarda keladi, muayyan adresatlarga yo‘nalgan murojaatlar ko‘p uchraydi, sifat so‘z turkumi va *мой* olmoshi bilan ifodalangan murojaatlar ham keng qo‘llaniladi. A. Axmatova lirikasida *о* undovli murojaatlar yoxud gap tarkibiga kiradi, yoxud mustaqil gap sifatida qo‘llaniladi. A. Axmatova lirik qahramoni o‘z nutqiy aktlarida jonsiz predmetlar hamda mavhum tushunchalarga murojaat qilishni afzal biladi, bunda ular jonlantiriladi, barcha his-tuyg‘ular, kechinmalar, xavotirlar kuchaytiriladi va keskinlashadi. A. Axmatova va M. Svetayeva lirik qahramonlari barcha his-tuyg‘ulari hamda kechinmalarini o‘z nutqiy aktlarida o‘zi bilan muloqot qilish vositasida murojaatlar orqali ifodalaydilar.

10. A. Axmatova lirik asarlarida murojaatlar joylashuvi sintaktik jihatdan bir xil emas: murojaatlar nutqiy konstruksiyalarning boshida, o‘rtasida yoki oxirida joylashishi mumkin. Shoirada murojaatlar gap o‘rtasida keladi, yoki alohida gap sifatida shakllanadi, bu shoiraning o‘ziga xosligi sifatida talqin etilishi mumkin.

11. Lirik qahramon ifodalaridagi murojaatlar rolini e’tiborga olib, A. Axmatova va M. Svetayeva ijodidagi poetik nomalarning adresatlarini ularning verbal va noverbal “javob reaksiyalari” nuqtai nazaridan tadqiq etish lozim.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ**

**УЗБЕКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ МИРОВЫХ
ЯЗЫКОВ**

ЁВКАЧЕВА ЗЕБО МЕЛИКУЛОВНА

**СЕМАНТИКО-ФУНКЦИОНАЛЬНЫЙ СТАТУС
ОБРАЩЕНИЯ В ПОЭТИЧЕСКОМ ТЕКСТЕ
(на материале поэтического языка А. Ахматовой и М. Цветаевой)**

10.00.04 – Языки и литература народов Европы, Америки и Австралии

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

ТАШКЕНТ – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за В2017.3.PhD/Fil333.

Диссертация выполнена в Узбекском государственном университете мировых языков.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.uzswlu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziyo.net.uz).

Научный руководитель:	Бакиева Гуландом Хисамовна доктор филологических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Хашимова Дильдора Уринбаевна доктор педагогических наук, профессор Бакиров Поён Уралович доктор филологических наук, профессор
Ведущая организация:	Самаркандский государственный институт иностранных языков

Защита диссертации состоится «____» _____ 2023 года в ____ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 по присуждению ученых степеней при Узбекском государственном университете мировых языков (Адрес: 100138, город Ташкент, Учтепинский район, улица Кичик халка йули, дом 21А. Тел.: (+99871) 230-12-91; факс: (+99871) 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета мировых языков (зарегистрировано за № ____). (Адрес: 100138, город Ташкент, Учтепинский район, улица Кичик халка йули, дом 21А. Тел.: (+99871) 230-12-91; факс: (+99871) 230-12-92.)

Автореферат диссертации разослан «____» _____ 2023 года.

(Реестр протокола рассылки № ____ от «____» _____ 2023 года).

Л. Т. Ахмедова

И.о. председателя Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор педагогических наук, профессор

Х.Б. Самигова

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, доцент

Ж. А. Якубов

Председатель Научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В современном мире в мировой лингвистике рубежа XX-XXI века внимание ученых со структурно-семантических аспектов исследования языка переходит на функционально-коммуникативные. В связи с этим центром исследования становится феномен языковой личности, изучаемый с точки зрения собственно лингвистического, психолингвистического, лингвокультурологического, прагматического и других аспектов. В поэтическом тексте большое значение представляют собой обращения лирических персонажей, а также сопутствующие обращения вербальные средства речевых действий и раскрытие прагматических свойств невербального поведения лирических героинь.

В мировом языкознании ведутся исследования жанрово-лингвистических особенностей поэтического текста. Ученые анализируют творчество А. Ахматовой и М. Цветаевой в контексте мировой культуры. Путем исследования свойств персонажей лирических произведений А. Ахматова и М. Цветаевой в качестве языковой личности актуализируется определение синтаксического статуса, его видов, форм и методов выражения обращения и общих сторон речевых действий лирических героинь на основе коммуникативно-прагматического подхода.

В нашей стране изучению вопроса семантико-функционального статуса обращений в поэтическом тексте в контексте мировых художественных традиций уделяется значительное внимание. В Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан отмечается в качестве приоритетного направления необходимость развития «социальной сферы, в том числе науки, литературы, искусства»¹. В связи с этим изучение семантико-функционального статуса обращений на материале поэтических текстов А. Ахматовой и М. Цветаевой является одной из насущных проблем современной как русской, так и узбекской лингвистической науки.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, обозначенных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-4947 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан» от 7 февраля 2017 года, № УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 года, № УП-5763 «О мерах по реформированию управления в сфере высшего и среднего специального образования» от 11 июля 2019 года, в Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» от 20 апреля 2017 года, № ПП-3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах» от 5 июня

¹ Указ Президента Республики Узбекистан УП-4947 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан» от 7 февраля 2017 года // Народное слово. 8 февраля 2017 г.

2018 года, в постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан № 174 «О мерах по закупке зарубежной учебной и научной литературы для системы высшего образования» от 24 мая 2016 года, № 816 «Об обеспечении высших образовательных учреждений учебной литературой» от 10 октября 2018 года, а также других нормативно-правовых актах, касающихся данной сферы.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики: I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации по социальному, правовому, экономическому, культурному, духовно-просветительскому развитию информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Ученые, учитывая системность объектов языкознания, указывают на следующие этапы исследования языка: Исследуя проблему изучения языковых реалий в прагматическом аспекте, мы приводим некоторые направления из исследований ученых по вопросам поэтического языка А. Ахматовой и М. Цветаевой. В работе О.Г. Щербининой² рассматриваются проблемы звуковой организации произведений А. Ахматовой, в трудах В.С. Баевского, М.Б. Мейлаха, А. Хан, Л.А. Кузнецовой, С.А. Ногачевской, А.В. Яковлева³ освещен семантический аспект проблемы поэтического языка А. Ахматовой и М. Цветаевой, в работах Н.С. Валгиной⁴ исследуется своеобразный строй синтаксиса стихотворений А. Ахматовой.

Внимание М. Белкиной, И. Кудровой⁵ направлено на исследование биографических истоков творчества М. Цветаевой. Изучению психологических истоков личности М. Цветаевой исследуют в своих работах Л. Козлова, Д. Таубман⁶, философские аспекты анализируют В.М. Лосская, Е.Л. Лаврова, Л.А. Кузнецова⁷.

² Щербинина О.Г. «Не звукоподражание, а душепреображение...» (К 100-летию со дня рождения А. Ахматовой) // Русская речь. 1989. № 3.

³ Баевский В.С. О семантике заглавий ахматовских книг // Литература и фольклорная традиция. – Волгоград, 1997; Мейлах М.Б. Об именах Ахматовой. 1. Анна // Russian Literature. 1975. № 10/11; Хан А. К проблеме жанрового своеобразия ранней лирики А. Ахматовой: Опыт параллельного анализа семантической структуры текста и психологической структуры жанровых моделей // Acta Univ. Szegediensis: Diss. slavica, 1976. № 11; Кузнецова Л.А. Эстетическая функция слова в ранней поэзии Анны Ахматовой: лексико-семантический аспект: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1995; Ногачевская С.А. Ономастика А. Ахматовой: генезис, функции, текстообразование: Дисс. ... канд. филол. наук. – Одесса, 1994; Яковлева Е.А. Особенности речевого поведения горожанина в полиэтничном городе // Проблемы коммуникации и номинации в концепции общегуманитарного знания // Сборник научных трудов в честь проф. Л.А. Шкатовой. – Челябинск, 1999.

⁴ Валгина Н. С. Современный русский язык: Синтаксис. Изд. 4-е., испр. – М.: Высшая школа, 2003. – 416 с.

⁵ Белкина М. Скрещение судеб. – М., 1988; Кудрова И.В. «Дом на горе» М. Цветаевой. 1923 г. // Звезда. – 1987. – № 8.

⁶ Козлова Л.Н. По волному следу воды родниковой. К истокам личности Марины Цветаевой // Звезда. – 1987. – № 8; Таубман Д. «Живя стихами...» Лирический дневник М. Цветаевой. – М., 2000.

⁷ Лосская В.М. Цветаева в жизни. – М., 1992.; Лаврова Е.Л. Поэтическое мирозерцание М.И. Цветаевой. – Горловка, 1994; Кузнецова Л.А. Эстетическая функция слова в ранней поэзии Анны Ахматовой: лексико-семантический аспект: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1995.

